

**O‘ZBEK TILIDA MAQSAD MA’NOSI SO‘ZLAR ORQALI IFODALANISHI****Mamaraximov Sirojiddin**

GulDU stajyor-o‘qituvchisi

mamaraximov90@umail.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqsad ma’nosini ifodalovchi vositalar va ularning qo‘llanilish o‘rni va xususiyatlari yoritilgan bo‘lib, maqsad ma’nosini ifodalovchi leksemalarning umumiy ma’nosi ochib berildi, morfemalar va leksemalarning lisoniy mohiyatida kategorial, yondosh va hamroh ma’nolar yaxlitligi tavsiflanadi, morfemalar va leksemalar nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar bir-biriga nisbatan o‘xshash va farqli jihatlari tahlil etildi.


Kalit so‘zlar: maqsad ma’nosi, leksema, maqsad ravishlari, ko‘makchilar, kelishiklar, fe’l mayllari.

Annotation. The reference "Article expressing this purpose" describes the place of use and its features, reveals the general meaning of lexemes expressing the meaning of the purpose, the category of morphemes and lexemes in the linguistic view, the integrity of adjacent and accompanying meanings. description, morphemes and lexemes were analyzed as similar and different in linguistic and non-linguistic speech.

Key words: purpose meaning, lexeme, purpose adverbs, auxiliaries, agreements, verb moods.

Turkiy tillarda so‘zlardagi ma’no nozikliklari leksemalarga qo‘shimcha qo‘shilgan holatlarda, asosdagi tovushlarning o‘zgargan holatida, asosga qo‘shimcha qo‘shilgan hollarda yuzaga keladi. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida maqsad ma’nosining ifodalanishi bir qancha vositalarda ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tilshunosligida maqsad ma’nosi nafaqat morfemalar orqali, balki so‘zlar orqali ham ifodalanadi. Buni 1940-2000-yillar oralig‘ida nashr etilgan darslik, o‘quv qo‘llanma, risolalar va ilmiy maqolalar orqali o‘rganishimiz mumkin. Biroq bu boradagi yoqlangan dissertatsiyalar aynan maqsad ma’nosining ifodalanishini ilmiy asoslab bera olgan. Shular qatorida so‘z turkumlari tarkibidagi maqsad ma’nosini ifodalovchi holatlarni ko‘rib chiqamiz. Jumladan, olmoshlarning egalik affikslerini olib qo‘llanishida ayrim xususiyatlar mavjud: a) ot tipidagi so‘roq olmoshlari, bo‘lishsizlik,





belgilash olmoshlari, shuningdek, o'z olmoshi egalik affikslarini qabul qiladi; b) paytga nisbatan so'roq bildiruvchi olmoshlar, sabab-maqсадni aniqlash uchun beriladigan so'roq olmoshlari, I,II shaxs kishilik olmoshlari egalik affikslarini olmaydi; v) kelishik-ko'rsatish olmoshi (u), qaysi, necha so'roq olmoshlari, asosan otlashganda egalik affikslari bilan birga qo'llanadi. Egalik affikslarining qo'shilishida ayrim xususiyatlar bor: ko'rsatish olmoshlarining I va II shaxs birlik va ko'plik, shuningdek, III shaxs ko'plik egalik affikslarini bir darajali qabul qiladi: bunim, shunimiz, uningiz kabi. Ko'rsatish olmoshlarining III shaxs birlik formasida esa egalik affiksi ikki darajali bo'lib keladi: u — unisi, shu — shunisi, bu — bunisi, kabi. Qaysi,necha so'roq olmoshlari otlashib II va III shaxs birlik I, II, III shaxs ko'plikda egalik affikslarini olib kelsa ham, I shaxs birlikda (garchi ular otlashgan bo'lsa ham) egalik affikslarini olmaydi. Qaysi olmoshining o'zagi, aslida qay bo'lib, uning tarkibida egalik affiksi borday ko'rinsa ham (qay-i-si, qay-u-si) hozirgi tilda yana bir egalik affiksi qo'shib ishlatiladi: qaysisi.

So'roq olmoshlari orqali so'zlovchi nutq protsessida ishtirok etuvchilardan o'ziga ma'lum bo'lmagan narsani aniqlab bilishga intiladi.

So'roq olmoshlari shaxsga (kim?), predmetga (nima?), belgiga (qaysi? qanday?), miqdorga (necha?, qancha?), vaqtga (qachon?), maqsad va sababga (nega?, nimaga?) va o'ringa (qani?) munosabat anglatadi.

Nega (ne (nima)+ga) olmoshi voqea-harakatning sodir bo'lishidagi sabab, maqsadni aniqlash uchun beriladigan so'roqni bildiradi. Bu olmosh quyidagi xususiyatlarga ega:

- deyarli hamma vaqt ravish xarakteriga ega bo'lib, bo'lishli formadagi fe'llar oldida keladi va sabab, maqsadni aniqlash uchun beriladigan so'roqni ifodalaydi: Nega kelding? Nimaga kechikding?

- bo'lishsiz fe'li oldida kelib, deyarli hamma vaqt sababni bildiradi: Nega kuzatmadi? Nega men shunday qilolmayman? (S.Ahmad).

- nimagaki, negaki, nega desangiz, naki formalarida sabab bog'lovchisi vazifasini boshqaradi: Oyoqiz buning sabablarini surishtirmadi, negaki hozir boshqa brigadalarning boshliqlari ham kelishlari kerak edi. (Sh.Rashidov). Nega bunga Chittak, deb laqab qo'yдилaring? - Nimagaki, shoxdan-shoxga sakrab yuradi (A.Qahhor);





- nega soʻzi -dir affiksining qoʻshilishi bilan modallik xarakteriga ega boʻlib, voqea-hodisaning sodir boʻlishi sababi soʻzlovchi uchun nomaʼlum ekanligini bildiradi: Yomgʻir aralash qor yogʻib turgan boʻlsa ham, u negadir shoshilmas, xayol bilan band edi.

Maqsad maʼnosi, aynan boshqa soʻz turkumlaridan oʻsib chiqqan ravish soʻz turkumida yaqqol koʻzga tashlanadi. Maqsad ravishlari ish-harakatning qay maqsadda sodir boʻlayotganini yoki nima uchun yuzaga kelayotganini bildiradi: atay, ataylab, atayin, qasddan, joʻrttaga, azza-bazza kabi: Siz odamlarga shunday koʻrinish uchun joʻrttaga shunday qilsangiz kerak. Yuksak binolar tomon, Bordik bizlar atayin (P. Moʻmin) [1,2,3,4].

Koʻmakchilar vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon va shu kabi boshqa munosabatlar bildirish uchun qoʻllanadigan soʻz turkumidir.

Sintaktik tomondan koʻmakchilar quyidagi gruppalariga boʻlinadi: 1) bosh kelishikdagi ot va qaratqich kelishigidagi soʻzlarni boshqaradigan koʻmakchilar; 2) joʻnalish kelishigidagi soʻzlarni boshqaradigan koʻmakchilar; 3) chiqish kelishigidagi soʻzlarni boshqaradigan koʻmakchilar.

Vosita, sabab, maqsad, qiyos-oʻxshatish munosabatlari ifodalash uchun qoʻllaniladigan bilan, uchun, kabi, chogʻli, qadar, sayin, boʻyicha, orqali, sababli koʻmakchilari bosh kelishikdagi soʻzni yoki qaratqich kelishigidagi olmoshlarni talab qiladi.

Yoʻnalish, sabab, maqsad munosabatlarini ifodalash uchun qoʻllanadigan koʻra, qarshi, qarab, qaramasdan, qaramay koʻmakchilari joʻnalish kelishigidagi soʻzni talab qiladi. Chogʻishtirish, qiyos, ajralish munosabatlarini ifodalash uchun qoʻllanadigan soʻng, boshqa, keyin, tashqari, beri, boʻlak koʻmakchilari chiqish kelishigidagi soʻzni talab qiladi.

Maqsad maʼnosini ifodalaydi: Shifokorlar moskvalik hamkasblar oldiga juda zarur ish bilan, yaʼni shu sohada olib borayotgan diqqatga sazovor ilmiy ishlars bilan tanishish uchun ketdilar («Jurnaldan»). Muqimiy hayotida yana tinch-osoyishta kunlar boshlandi, kunduzlari ijod bilan mashgʻul boʻldi (S. Abdulla). tinglovchilar ishlab chiqarishning turli sohalari boʻyicha yangi texnika va ilgʻor texnologiya bilan tanishdilar («Jurnaldan»).

1. Maqsad maʼnosini ifodalaydi. Bunday chogʻda uchun koʻmakchisi ot, olmosh, shuningdek, harakat nomi va -sin, -lik affikslari bilan tugagan soʻzlardan keyin keladi:





Buyuk kishilar doim insoniyat uchun qayg'uradi. (Shuhrat). Shoir Nodimning hashamatli bir mehmonxonasi aziz mehmonlar uchun ajratildi (S.Abdulla). Yusufbek hoji ertalab choyni Otabek, bilan birga ichish uchun mehmonxonaga chiqdi (A.Qodiriy). Ahmadjon dushmanga omon bermaslik uchun tinimsiz o'q uzdi (A.Qahor). Buvisi eshitsin uchunu qattiqroq so'zladi. Qochoqni ibrat bo'lsin uchun saf oldiga qo'yib otib tashladilar (Shuhrat). Kun isib ketgan vaqtlarda dam olish uchun kichik-kichik qishloqlarda to'xtar edilar (S.Abdulla).

Bog'lovchi vazifasini bajaruvchi so'zlar. Ba'zan boshqa so'z turkumidagi so'zlar bog'lovchi vazifasida qo'llanadi. Masalan: bilan, bordi-yu (bular haqida yuqorida aytilgan), deb (demoq fe'lidan, ravishdosh).

Deb so'zi bog'lovchi vazifasida kelganda ergash gaplarning ba'zilarini (shart, maqsad, sabab) bosh gapga bog'laydi.

Bog'lovchi vazifasidagi deb, aniqlik maylidagi fe'llarda keyin kelsa, aniqlik yoki sabab ma'nolari anglatadi: Majlis bo'ladi deb vaqtli kelgan edim.

Bog'lovchi vazifasidagi deb buyruq va istak fe'llaridan so'z kelganda esa, maqsad ma'nosini anglatadi: Shofyor odamlar o'tib ketsin deb xuddi mashinani o'sha panjara eshigi yonida to'xtatgan. (So'zlashuv uslubidan).

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev F. O'zbek tilshunosligining taraqqiyoti va A.K.Borovkovning ilmiy faoliyati // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1974. № 1. – B. 30.

2. Akbarovich, Axrorov Alisher. "MAQOLLARDA UMUMYASHIRIN MA'NONING NAMOYON BO'LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI." TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMYI JURNALI 3.4 (2023): 163-166.

3. Axrorov Alisher Akbarovich. (2022). The problem of the role of proverbs in the event of a speech act. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 49–53. Retrieved from

<https://www.geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/2816>

4. Axrorov, A. A. UDK: 811.512. 133 ROST VA YOLG'ON SO'ZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI. ILMYI AXBOROTNOMA, 57.

5. Dadaboyev H. "Devonu lug'atit turk"ning til xususiyatlari. –Toshkent: TDSHI, 2017. – 135 b.

6. Dadaboyev H., Xamidov Z., Xolmanova Z. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: Fan, 2007. – 163 b.





7. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOG'AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION, 1(4), 38-42.

8. Ermatov Ikhtiyar. (2022). HYPERO-HYPONYMIC RELATIONS IN THE TERMINOLOGICAL SYSTEM OF MORPHEMES AND WORD FORMATION LEVELS OF UZBEKI. World Bulletin of Social Sciences, 16, 133-136. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/1737>

9. Jumanazar, A., & Lutfiniso, D. (2022). Inguistic Unity in Uzbek Linguistics Some Comments about the form. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 688–692. Retrieved from <https://emjms.academicjournal.io/index.php/emjms/article/view/505>

10. Khamrokulovna, T. Z. (2021, August). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul-, -qul-COMPONENT NAMES). In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES (Vol. 1, pp. 48-50).

11. Madvaliyev A. O'zbek leksikografiyasi tarixidan // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 2008. – №2. – B. 37-41.

12. Mamaraximov, S. (2022). MAQSAD MA'NOSINI IFODALOVCHI DASTLABKI VOSITALAR. Academic research in educational sciences, 3(7), 376-385.

13. Muxidillayev, F. (2022). LINGVOPOETIKANING O'RGANILISHIGA DOIR QARASHLAR. Academic research in educational sciences, 3(7), 315-320.


14. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. 232 b.

15. Pardayeva, I., & Mahmudboyeva, F. (2022). ZARGARLIK TERMINLARINING SINTAKTIK USUL BILAN YASALISHI. Gospodarka i Innowacje., 24, 562-564.

16. Sharipov, F. G. (2021). Attitude to the plural affix in Uzbek language. Scientific reports of Bukhara State University, 5(1), 50-64.

17. To'xliyev B. Qadimgi turkiy til lug'ati // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2003. – № 3. – B. 73-79.

18. Yodgorov, H., & Zulayho, T. (2022). JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY. Journal of Northeastern University, 25(04).





ISSN (E): 2181-4570

19. Sh.Xudoyqulova. (2023). MAQOLLARDA SHEVAGA XOS SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI (A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asari asosida). Journal of Universal Science Research, 1(4), 299–303. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/481>

